



Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-iyul holatiga)

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan
o'tgan

24476
ta.

2019-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 3318 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1660 taga ko'pdir.

Faoliyat
ko'rsatayotgan

23904
ta.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4044 ta (20,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 23904 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil
etilganlar

3318
ta.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyul holatiga)

24476 tani tashkil etdi

19,5 %

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda




O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati

2019-yilning 1-iyul holatiga 24476 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,5 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,6 % savdo, 13,1 % sanoat, 13,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,9 % qurilish, 4,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 26,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (5769 ta) savdo, (3215 ta) sanoat, (3179 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (2905 ta) qurilish, (1095 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (874 ta) tashish va saqlash, (572 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (286 ta) axborot va aloqa, hamda (6581 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **23904** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4044 ta (20,4 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Qurilish




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Qarshi shahri (5001 ta) va Chiroqchi (1967 ta), Koson (1903 ta), Qarshi (1837 ta), Kitob (1676 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (808 ta), Muborak (861 ta) hamda Nishon (907 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-iyun oylarida 3318 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1660 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarning o'sish sur'ati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (940 ta), sanoat (746 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (527 ta) va qurilish (377 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (31 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (78 ta) hamda tashish va saqlash (80 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



527

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



185

Sanoat



746

Axborot va aloqa




31

Qurilish



377

Tashish va saqlash




80

Savdo



940

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



78


Boshqa turlar

i

354

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Qarshi shahri (641 ta), Chiroqchi (286 ta), Qarshi (273 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Muborak (97 ta) va Dehqonobod (110 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajada.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyul holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 19184 tani tashkil qildi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona



Unitar korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



151 ta


O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 martaga o'sgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

Asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston, Koreya Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 151 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 89 taga yoki 2,5 martaga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston, Koreya Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 115 tasi qo'shma, 36 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Qarshi shahrida 43 ta (jamidagi ulushi 28,5 %), Kitob tumanida 14 ta (9,3 %) va Nishon tumanida 13 tani (8,6 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Shahrisabz shahrida 3 tani (2,0 %) va Mirishkor 4 ta (2,6 %) tumanida tashkil etgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa axborot va aloqa hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




Boshqalar



1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 61 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 51 taga ko'paygan.



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 8 ta, Rossiya Federatsiyasi - 7 ta, Turkiya Respublikasi - 7 ta, Qozog'iston Respublikasi - 7 ta va Eron Islom Respublikasi - 7 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 38 ta sanoat, 10 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5 ta savdo, 5 ta qurilish, va 1 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyul holatiga)



2019-yil 1-iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 19020 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 21,1 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-iyun oylarida 3067 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1489 taga ko'proqdir.



•Kichik tadbirkorlik
sub'ektlarining eng katta
ulushi

•Kichik tadbirkorlik
sub'ektlarining eng kichik
ulushi

•Qarshi shahri
22,2 %

•Dehqonobod tumani
4,7 %

•Chiroqchi tumani
8,1 %

•G'uzor tumani
4,3 %

•Koson tumani
8,1 %

•Shahrisabz tumani
4,2 %

•Qarshi tumani
7,9 %

•Kasbi tumani
3,6 %

•Kitob tumani
6,9 %

•Muborak tumani
3,6 %

•Shahrisabz shahri
6,7 %

•Nishon tumani
3,5 %


•Yakkabog' tumani
6,6 %

•Mirishkor tumani
3,0 %

•Qamashi tumani
6,6 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 19020 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5609 ta (29,5 %) – savdo, 3116 ta (16,4 %) - sanoat, 3054 ta (16,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2805 ta (14,7 %) - qurilish, 1055 ta (5,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 831 ta (4,4 %) - tashish va saqlash, 422 ta (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 271 ta (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1857 tasi (9,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

30,4 %



Sanoat

24,2 %



Qurilish

12,3 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,0 %



Tashish va saqlash

2,6 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

17,1 %



Axborot va aloqa

1,0 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2,0 %




Boshqa turlar

4,4 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 932 ta, sanoat 743 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 524 ta va qurilish 376 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 31 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 60 ta hamda tashish va saqlashda 80 ta tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (592 ta), Chiroqchi (268 ta), Qarshi (239 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muborak (91 ta) va Dehqonobod (99 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-iyul holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-iyul holatiga



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,9 % yoki 309 tasi sanoat, 19,9 % yoki 199 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,6 % yoki 176 tasi savdo, 17,2 % yoki 172 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3,1 % yoki 31 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % yoki 14 tasi qurilish, 0,9 % yoki 9 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 8 tasi axborot va aloqa hamda 8,2 % yoki 81 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Qashqadaryo viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi .
Tel.:71-230-84-10(11)**